DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18155095

IJRO HOKIMIYATI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI KUCHAYTIRISHDA DEPUTAT SO‘ROVINING O‘RNI

Olimbayev Sarvarbek Maxmud o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Davlat boshqaruvi” yo‘nalishi magistranti

E-mail: sd2025-90132@uwed.ac.uz

Ilmiy rahbar: **Nasimov Sunnatillo Valijonovich**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirishda deputat so‘rovi institutining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston amaliyotidagi mavjud muammolar Buyuk Britaniyaning Prime Minister’s Questions (PMQs) va Ministerial Questions mexanizmlari bilan qiyosiy o‘rganiladi. Deputat so‘rovlari bo‘yicha shaffoflikni oshirish, javoblar sifatini yaxshilash va siyosiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: *deputat so‘rovi, parlament nazorati, siyosiy javobgarlik, shaffoflik, PMQs, qiyosiy tahlil, Buyuk Britaniya tajribasi.*

ABSTRACT

This This article analyzes the role of the parliamentary inquiry (deputy request) mechanism in strengthening parliamentary oversight over the executive branch. The study compares existing issues in Uzbekistan’s practice with the mechanisms of Prime Minister’s Questions (PMQs) and Ministerial Questions in the United Kingdom. The paper advances proposals aimed at enhancing transparency of parliamentary inquiries, improving the quality of responses, and strengthening mechanisms of political accountability.

Keywords: *parliamentary inquiry (deputy request), parliamentary oversight, political accountability, transparency, PMQs, comparative analysis, UK experience.*

Ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratining samaradorligini oshirishda deputat so‘rovi eng muhim nazorat mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro parlament standartlariga ko‘ra, deputat savollari ijro hokimiyatini javobgarlikka tortishda eng ta’sirchan vositalardan biri sifatida e’tirof etilgan.[5; 49–50-b]

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni deputat so‘rovi institutini normativ asos bilan mustahkamlagan bo‘lsa-da, amaliy jarayonda deputat so‘rovlari ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarlicha jiddiy e’tiborga olinmayotgani kuzatilmoqda. Ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, shaffoflikni ta’minlash va jamoatchilikni hukumatga bo‘lgan ishonchni oshirishda deputat so‘rovining ahamiyati muhimligicha qolmoqda. Bugungi kunda xorijiy tajribaga ko‘ra, parlament nazorati kuchli bo‘lgan davlatlardan, xususan Buyuk Britaniyada, parlament vakolatlarining eng muhim nazorat mexanizmlaridan biri deputat so‘rovi bo‘lib, u parlamentning hukumat ustidan real kuchini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston amaliyotidagi deputat so‘rovi institutining samaradorligini baholash va uni Buyuk Britaniyaning PMQs modeli bilan qiyosiy tahlil asosida takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Maqolaning keyingi qismida deputat so‘rovi institutining nazariy asoslari, O‘zbekiston amaliyotidagi mavjud muammolar va Buyuk Britaniya tajribasi bilan qiyosiy tahlil natijalari tahlil etiladi.

O‘zbekistonda parlament nazorati, xususan deputat so‘rovi instituti samaradorligi ma’lum darajada oshgan bo‘lsa-da, tizimda ba’zi muammolar kuzatilmoqda. Konstitutsiyaning 94-moddasi va “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonun deputatga axborot talab qilish huquqini beradi.[1] Ammo javob sifati, takroriy nazorat, mas’ul rahbarning javobgarligi kabi elementlar amaliyotda izchil emas. Ayrim hollarda “Hukumat soati” va “parlament eshituvlari”da hukumat a’zolarining ishtiroki sustligi, javoblarning yuzaki berilishi, mas’uliyat hissining kamligi va deputat so‘rovlari yetarlicha siyosiy og‘irlikka ega bo‘lmayotgani ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumot uchun: 2024-yil 25-yanvarda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida”gi majlisda “Adolat” SDP fraksiyasi rahbari Zuhra Ibragimova deputatlar tomonidan yuborilgan deputat so‘rovlariga javoblar yuzaki berilayotgani, vazir o‘rinbosarlari yoki boshqa mas’ullar tomonidan javob qaytarish holatlari uchrayotganini ta’kidlagan.[2]

Joriy yilda ham deputat so‘rovlari va aholi murojaatlarining o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmasligi vazirlik faoliyatidagi boshqaruv va javobgarlik mexanizmlarining yetarli darajada emasligini ko‘rsatib, takroriy murojaatlar sonining ortishiga va fuqarolarning ba’zi muammolari hal etilmay qolishiga olib kelgan.

Ma’lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisdagi nutqida: “Parlament nazorati – bu, avvalo, xalq nazorati, xalq so‘rovi. Shu ma’noda, parlament va deputat so‘roviga har bir rahbar shaxsan javob berishi shart”, degan edi.[3]

O‘zbekistonda deputat so‘rovlari bo‘yicha shaffoflik yetarli emas, bu esa jamoatchilik nazorati kuchini kamaytiradi. Deputat so‘rovlari va ularga berilgan javoblarning to‘liq videoyozuv yoki matn ko‘rinishida ochiq reyestrda mavjudligini ta’minlash lozim. Aks holda, parlament nazorati jarayonining kuzatuvchanligi cheklanishiga olib keladi. Holat yuzasidan xorijiy tajribani o‘rganish va amaldagi milliy modelni takomillashtirish parlament nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro akademik adabiyotlarda deputat so‘rovi parlament nazoratining eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, parlament savollari hukumatdan axborot olish, vazirlarning pozitsiyalarini jamoatchilik oldida aniqlashtirish va ijro hokimiyatining siyosiy javobgarligini oshirishga xizmat qiladi. *Exploring Parliament* asarida qayd etilishicha, parlament savollari deputatlarning hukumat va uning bo‘linmalarini javobgar qilishining “asosiy vositalaridan biri” hisoblanadi; PMQs esa parlament nazoratining “eng ko‘zga ko‘rinadigan mexanizmi” sifatida baholanadi.[4; 186-191-b]

Buyuk Britaniyada deputat so‘rovlari parlament vakolatlarining eng muhim nazorat mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Buyuk Britaniya parlamentida har hafta Bosh vazir “Prime Minister’s Questions” (PMQs) sessiyasida deputat savollariga jonli efirda javob beradi. Vazirlar esa muntazam ravishda “Ministerial Questions” jarayonida hisobot beradi. Javob bermaslik yoki javobni kechiktirish holatlarining davomli kuzatilishi siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.[6]

Ma’lumot uchun: 2022-yilda Boris Jonsonning “Partygate” bo‘yicha Parlamentga noto‘g‘ri ma’lumot bergani siyosiy bosimni kuchaytirib, uning iste’fosiga ma’lum darajada sabab bo‘lgan.[7] *Rishi Sunak faoliyati davomida PMQs jarayonlarida iqtisodiy siyosat bo‘yicha keskin savollar ostida qolgan va ayrim siyosiy pozitsiyalari tanqid qilingani kuzatiladi. PMQs jarayoni bosh vazirning siyosiy dalillaridagi zaif jihatlarni ochib beruvchi asosiy maydon sifatida parlament nazoratining muhim shakli hisoblanadi.*[8]

Buyuk Britaniyada deputat so‘rovlari parlament nazoratining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida to‘liq ochiq reyestrda yuritiladi.[9] Deputat so‘rovlari bo‘yicha barcha yozma savollar va hukumat javoblari Parliamentary Questions Open Database’da e’lon qilinadi, og‘zaki savollar - jumladan “Prime Minister’s Questions” (PMQs) va “Ministerial Questions” - Hansard stenogrammalarida va parlamentning rasmiy video arxivida muntazam ravishda chop etiladi. Ushbu ochiqlik deputatlarning ijro hokimiyatidan axborot talab qilish vakolatini kuchaytiradi, javoblarning sifati va o‘z vaqtida taqdim etilishini jamoatchilik nazorati ostida saqlaydi hamda siyosiy javobgarlikni oshirishga xizmat qiladi.[10]

Buyuk Britaniya tajribasida deputat so‘rovlari orqali ijro hokimiyati javobgarligini kuchaytirish borasida O‘zbekiston uchun muhim islohot yo‘nalishlari mavjud. Britaniya modeli shaffoflik, jonli efir, deputat savollarining siyosiy og‘irligi va mansabdorlarning hisobot berish majburiyati orqali parlament nazoratini kuchaytiradi. Mazkur elementlarning ba’zilari O‘zbekiston amaliyotida kuzatilsa-da, ularni yanada takomillashtirish deputat so‘rovi samaradorligini, shuningdek ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda deputat so‘rovlari parlament nazoratining muhim vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, mazmuniy javoblar sifati,

shaffoflik va siyosiy javobgarlikning og‘irligini yanada rivojlantirishni talab qiladi. Buyuk Britaniya tajribasi deputat so‘rovi institutini kuchli siyosiy mexanizmga aylantirishga xizmat qiluvchi samarali modelni taqdim etadi**.**

O‘zbekiston sharoitida deputat so‘rovi institutini yanada rivojlantirish uchun:

- deputat so‘rovlari bo‘yicha ochiq elektron reyestr yaratish;
- javob sifati va mas’ullikni oshiruvchi siyosiy javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish;
- jonli efir amaliyotini tizimlashtirish va qamrovini kengaytirish;

kabi yo‘nalishlar taklif etiladi. Mazkur choralar orqali parlament nazorati kuchayadi, ijro hokimiyatining hisobdorligi ortadi va davlat boshqaruvi samaradorligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 94-modda; “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonun, 2016-yil 11-aprel.
2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi. *Sarhisob: parlament faoliyatidagi muhim natijalar va ustuvor vazifalar*, 2024-yil 25-yanvar. Rasmiy axborot materiali.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish majlisidagi nutqi*, 2024-yil 20-noyabr.
4. Leston-Bandeira C., Meakin A., Thompson L. *Exploring Parliament*. Oxford University Press, 2020, pp. 186–191.
5. Inter-Parliamentary Union (IPU). *Tools for Parliamentary Oversight*. Geneva: IPU, 2007, pp. 49–50.
6. Institute for Government. *Prime Minister’s Questions (PMQs) – Explainer*. London: Institute for Government, 2024. URL:https://www.instituteforgovernment.org.uk/explainer/prime-ministers-questions-pmqs
7. Commons Privileges Committee. *Investigation into Boris Johnson*. UK House of Commons Report, 2023.
8. Hansard Society. *Parliament Matters Podcast*, Episode 19, 2023/2024.
9. UK Parliament. *Parliamentary Questions: Holding the Government to Account*.
10. UK Parliament. *Parliamentary Questions Open Database*; Hansard. *Parliamentary Debates (PMQs and Ministerial Questions)*; UK Parliament Video Archive.